

## ALISHER NAVOIYNING SHE'RIYATDA INSON RUHIYATINI IFODALOVCHI RANG

**A. Abduvaliyev**  
JDPU katta o'qituvchi

### ANNOTATSIYA

Alisher Navoiyning she'riyatida bitta sariq rangni ifodalovchi so'zning forscha, arabcha, o'zbekcha sinonim ma'nolarida butun bir xalqning o'gir hayoti jabr, zulm, g'am va qayg'ularini ifoda eta olgan.

**Kalit so'zlar:** Sariq rang, zard, kahrabo, zar, kah, behi, xaron, za'faron, asfar, safari.

### АННОТАЦИЯ

Алишер Наваи был великим поэтом. Он на своих стихах с одной желтым светом употреблял синонимы с персидским и арабскими языками: кахрабо, кох, кохиш, зард, зар, олтун, запарон и тд.

### ABSTRACT

Alisher Navai was a great poet. In his poems with one yellow light, he used synonyms with Persian and Arabic languages: kahrabo, koh, kohish, zard, zar, oltun, zaparon, etc.

Alisher Navoiy o'z davrining mutaffakiri, olimi, shoiri sifatida, ham Xurosonda, ham Mavorounahrda tanilgan. U davlat ishlari bilan bir qatorda, turkiy xalqlar uchun ko'p asarlar va she'rlar yozishga ham vaqt ajrata olgan. Alisher Navoiyning she'rlarida o'z davrining insonlarining yashash sharoitlari ko'rsata olgan. Shoir o'z sherlarida odamlarning yashash sharoiti og'irligini, yetishmovchili, g'am va qayg'uga duchor bo'lganlarni sariq rang va ushbu so'zga sinonim ma'noda qo'llangan forscha, arabcha so'zlar orqali ifodalab bergan. She'riyatda qizil, qora, yashil kabi ranglar bilan bir bir qatorda o'zbekcha sorig', sarig', yoki shu rangni bildiruvchi oltin forscha zard, kahrabo, zar, kah, behi, xaron va arab tiliga xos bo'lgan za'faron, asfar, safari, za'faroner kabi sariq rangni bildiruvchi so'zlardan foydalanib odamlarning ahvolini ochib berishga harakat qilgan. Masalan, shoir kishilarning ko'p qiynalganini ayrim shevalar rangida ham ko'rsata olgan. Inson rangini behi rangida ko'rsatib, ularning yuzlarini behi rangidek sarg'ayganini ko'rsatib bergan. Bu baytda ushbu holatni ko'rsatishimiz mumkin:

- Behi rangidek bo'lishi dardi hajringdin manga siymo (18-bet)

Yoki

- Mazallat tufrog‘i sarig‘, yuzumda bordur andoq kim,
- Behida gard o‘lturg‘on masallik tik bo‘lur payda (18-bet)

Ushbu baytlarda insonning yuzida, ichida, jigarida sariq rang paydo bo‘lishini, dard, azob, alamli kunlarning barchasini mazallat tufrog‘i sarig‘, xorlik, tubanlik turog‘i ham sarig‘ bo‘ri, so‘z ham beti so‘zi yoki uning ustidagi gard haqida to‘xtalgan. Shoir bu kabi sarg‘ayish kabi ranglarni ifodalash uchun mevalar sariq rangidan tashqari oy va quyosh yoki mushtarv kabi sayyora va yulduzlarning rangida ham missollar keltirgan va quyidagi betda bu so‘zni ko‘rishimiz mumkin.

- Navoiy gar quyosh noranjidin behrak ko‘rar, tong yo‘q.

Ushbu baytda quyosh, noranj so‘zlari ishtirok etib yuqoridagi so‘zlar kabi sariq rangni ifodalaydi. Bu misrada dard, hijron, azoblarni quyoshning noranj rangidan ham sariq yuz ekanligini anglatadi.

Sariq rangni ifodalovchi so‘zlarni fasllar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni sarg‘aygan so‘zni anglatuvchi kuz fasli misolida ko‘rishimiz mumkin. G‘azallarda kuz faslini ma‘nosini anglatuvchi forscha “xazon” so‘zi ham ko‘p baytlarda o‘z aksini topgan.

- Sariq og‘riq bo‘ldim, ey soqiy, xazoni hajr aro,
- Qani afsar mayki, bor har qatrasini bir hahrabo. (24-bet)

Yoki

1. Xush gulshan erur dahr, budur aybiki, anda, (197-bet)
2. Payvasta xazon yelidiri ozurdadur ashjor.

Ushbu baytlarda fors izobasi orqali berilgan so‘z birikmasi yoki forscha + o‘zbekcha birikmalari yordamida keltirilgan birikmalarda, yani “xaroni hajr” (24-b), g‘ami xazoni, xazon yeli (120-137-b), xazon fasli kabi birikmalar qo‘llangan. Aslida “xazon” forscha so‘z bo‘lib, forscha lug‘atlarda “xazon” – tiramoh, forscha tiramoh, poiz;

2 Onki kulfati arob yo tajribayi dida asf<sup>1</sup> ushbu so‘zning, ya‘ni xazon so‘zining tarjimasini: xazon – kuz, kuz fasli; 2. Kishiki qiyinchilik arablari va tajribalarini ko‘rgan.

Biz ushbu maqolada xaron faqat daraxtlarning farqini sarg‘aygan holda to‘kilishi, yoki daraxt “ashjor”ning oxirgi holati bargso‘r qo‘lishi va daraxtning umri tugagandan keyin barg –yaproq chiqarmasdan o‘tinga aylanishi aytib o‘tgan. Shoir “xazoniyeli” so‘z birikmasini bir necha joylarda qo‘llagan va xaron yilidan ham ko‘p insonlar jabr ko‘rishini, azob chekishini va hohlar so‘zini bir necha ma‘noda ya‘ni kamaytirish; pasaytirish; tashvish dard –koyish, hohishu ozoridan<sup>2</sup> degan ma‘noni anglatishini

<sup>1</sup> M.SH.Shukurov, B.A. Kapranov, I.Xoshim, A.N.Ma‘sumi “Farhangi zaboni tojiki” Moshva 1969 2-tom 456-b O‘zbek tilining izohli lug‘ati 1-tom 415-bet.

<sup>2</sup>

o‘zbekcha lug‘atlarda ham berilgan. Yuqoridagi ma’nolarni bildiruvchi so‘zlar quyidagi bayt ko‘rsatilgan

- Ey bahori husn, eshitsang Navoiy ohini,
- Kerak, albatta, xazon Yilin sog‘insang kohlar (120-b).

Alisher Navoiy rang, ya’ni sariq rangni ifodalashda daraxt mevalari “behi”dan boshqa, noranjning mevasining rangi, ya’ni sap-sariq rangini insoniyatning azoblangan, qiynalgan sariq rangi berilgan. Noranj forscha lug‘atlarda “shakli arabishudayi norang, Norang yoki mevayi mamlakathoyi garn, ki nave ar aflesun buda gird va turs hast. Po‘stash g‘avs va zard bud<sup>1</sup>

Tarjimasi: noranj, norang so‘zining arabiylashgan shakli, Norang issiq mamlakatlarda o‘sadigan daraxtning mevasi, ya’ni apelsinning bir navi bo‘lib dumaloq va achchiq; terisi qalin va sariq.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida noranj van orang haqida ma’lumot berilmagan. Ushbu baytda “koh” – kohishdam somon rengvdek sarg‘aygan yuz va jigarlar haqida ma’lumot berishga harakat qilgan. Shoir ko‘rsatgan noranj rangi boshqa sariq ranglarga nisbatan bariqroq ekanligini va azob – uqubatlar ya’na baqiroq ekanligi haqida ma’lumot beradi. Yuqoridagi baytlardagi xazon so‘zi bilan birga kelgan so‘zlar yoki so‘z birikmalari xazonrezgi, yaproqlarning barg‘ayishini hijron, ayriliq azoblari bilan qiyosiy yo‘li bilan yoritishga harakat qilgan. Yuqorida odamlarning faqatgina mevalarning sariq rangi bilan emas, balki xazon faslida barcha daraxtlar sarg‘aysa, bu fasldagi rang kishilarning qiynalgan, jabr tortgan rangiga o‘xshashini ochib bergan. Baytlarda “koh” – sonini, hoh – kokish – kamaytirish, pasaytirish, dard, tashvish, koyish ozori (O‘.T.I.L -415), kahrobo siri o‘zbekcha lug‘atlarda biror farqli ravishda berilgan, ya’ni qahrabo bir turli sarig‘ tosh 1. Sariq rangli, shaffof, yaltiroq tosh, qotgan yelim. 2. Kahrabo rangiga o‘xshagan, sarg‘aygan, za’faron<sup>2</sup>

Ranglarni ifodalash uchun forscha, o‘zbekcha sariq rangni ifodalovchi so‘zlardan tashqari arabcha asfar, sabro so‘zlaridan ham foydalangan. Quyidagi baytda ko‘rishimiz mumkin.

- Mayi asfarki to‘kulmish quyubon yuz ichsam,
- Kahraboni ro‘rungiz jilva qilib hoh chekib (139-bet)

Ushbu baytda arab tilidan kirgan “asfar”, forscha kahrabo va koh (samoi yoki kohimoq) so‘zining hozirgi zamon asosi ham ariq-sarg‘aygan, sarg‘ayib ma’nolarida qo‘llangan. Kahrabo so‘zining esa forscha koh –samon, rabo – rabudasa –tortmoq fe‘lining hozirgi zamon asosidan, ya’ni samonni tort ma’nosini anglatadi. Bu so‘z huqida yuqorida o‘zbekcha lug‘atlardagi ma’nolari haqida ma’lumot berilgan edi.

<sup>1</sup> Farhansi zaboni fosihi 1-jild 498-bet.

<sup>2</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2-tom 454-bet.

Forscha lugʻatlarda “kahrabo” soʻzi haqida forscha lugʻatlarda quyidagicha yozilgan: “kahrabo” -amgʻi zarhrangi saxt va sangshudaye, tu agar anro ba charm suda ba koh nazdik hunad kahro mekashod, kohrang, kabrang, koh-kah rerahoyi koʻhta va xushki poyayi gandum<sup>1</sup>.

Tarjimasi: sariq rangli; qattiq va toshga aylangan, agar uni charimga ishqalab, somonga yaqinlashtirsa somonni oʻziga tortadi samon rangli, maydalangan va qurigan bugʻdoyning poyasi, yoki kohidan – kamsitmoq, azob bermoq.

Shuni taʼkidlash lozimki ikki tildagi lugʻatlarda ham “kahrobo” (samonni tort) sariq rangni ifodalab, shoir bu soʻzni inson ruhuyatidagi arab–qiyinchiliklar ifodalovchi rang sifatida koʻrsata olgan.

Alisher Navoiy yuz soʻzining forscha sinonim maʼnoda zarol, zar, yaʼni sarigʻ rangni bildirib, sarigʻ yuz, sargʻaygan yuz, sargʻayib borayotgan yuz maʼnolarida qoʻllangan. Quyidagi baytlarda forscha roʻy, chehra, rangsor, andam, oʻzbekcha yuzning sariq rangda boʻlishi haqida maʼlumot bergan.

-Oqartirib ishq boshimni, nihon boʻldi sariq chehram (18-bet)

-Bu sarigʻ ruxsora birla, qon yoshimdin yod qil (43-bet)

-Olgʻali qoʻymas sarigʻ yuzin qaro yordin uyot (72-bet)

Ushbu misralarda oʻzbekcha forscha soʻz birikmalari sariq yuzim, sariq ruxsora, hamda oʻzbekcha oʻzbekcha sariq yuzin kabi sinonim maʼnoli yuzi sariq maʼnolarida qoʻllangan. Boshqa misralarda. Ushbu maʼnolarni bildiruvchi boshqa soʻzlarni ishlatgan.

- Tobidin aylab quruq, rangimni qildi kohvash (271-bet)

-Navoiy orazi sorgʻordi gʻam yeb bexud oʻlmoqdin (215-bet)

-Yuzimning oltunida durri ashk gʻaltondur (117-bet).

Bu misralarda oʻzbekcha yuz, forscha ruxsor, rux, roʻy va arabcha oraz kabi soʻzlarda sariq rangni bildiruvchi oltun, zar, kohvash, hol, zard kabi soʻzlar ishlatilgan. Ushbu rang orqali mehnatkash xalqning pajmurda – solib, soʻligan, afsurda – xafa, charchagan maʼnolarida qoʻllangan. Xozondida soʻida azob va kulfat tajribalarini koʻrgan insonlarning ahvolini quyidagi baytda koʻrishimiz mumkin. Sifatdosh maʼnosida keltirilgan.

- Gʻam xozonida toʻkarmen ashlar, tortib gʻirev

- Navbahor andoqki yogʻqoglar bulutlar hohrashib (47-bet)

Yana bir baytda xazon boshida, yaʼni kuz faslida daraxtlarning bargi toʻkilishi va bahorda yaʼna barg chiqarishi, insoniyat qarigan chogʻda umrining xazon faslidek qiyinchiliklarga uchrashi haqida maʼlumot berilgan. Masalan:

- Navbahor ayyomi boʻlmish, men diyora yorsiz,

<sup>1</sup> M.SH.SHukurov, B.A.Karimov, I.Xashim, A.N.Maʼsumi. “Farhangi zaboni togʻihi” Mashva 1969 2-tom 456-b.

- Bulbul o'lg'ondek xaron busli guln gulzorsiz.

Ma'lumki fors tilida xazon so'zi xezidan – sudralmoq fe'lining xozirgi ramon sifatdoshi ma'nosida qo'llanilishi mumkin. Daraxt kuz faslida barglaridan qutulishi va bu burglar sarg'ayib shamolda sudralib yurgandek inson ham ko'p mehnat va asablardan qiynalishi bilan solishtiradi va daraxt ham ashjorga aylanishi, ya'ni to'nkaga aylanishini ko'rsata olgan.

- Ravza ashjori o'tundur, gullari jonimg'a o't,

- Mumkin o'lsa anda bo'lmog'lig' dome dildorsiz. (233-bet)

Masalan: - Ko'ngilni qon Yoshi kahi yuzim bilan ovuturuen,

- Sarig'-qizil bilan andoqki xalq tiblin ovko'mish (291-b)

Ushbu baytda ko'ngulda qiril qon va yuzida koh –ya'ni bu so'zni ham samon rangi, ham hohish–kamsitish, pastga urishga qatnashib odamlarni rangini sarg'ayishi sabab bo'lganlar haqida ma'lumot berishga harakat qilgan.

Koh so'zida shunday xulosa qilish mumkini xalqqa, mehnatkash kishilarga hamavaqt hohish berish, dashnom berish, haqorat qilish kamsitish, pastga urishlar ularni ruhiyatiga yomon ta'sir qildi. Baytlarda ko'rsatilgan yuz, ro'y, rux, ruxsor, arazini koh –somondek sarg'ayishiga olib borishi haqida ma'lumot bergan.

Alisher Navoiy mutafakkirligi shundaki u o'zbekcha bir sarig' so'zini sinonim ma'noli forsha, arabcha so'zlar zar, zard, koh, kahrobo, meva rangidan behi, noranj (apelsun), behida gard, asfar, safro, za'far, za'faron kabi sarig' rangni fodalovchi so'zlar orqali ochib berishga harakat qilgan. Yuqoridagi so'zlar yordamida sarig' rangni bildiruvchi tufrog'i sarig', noranjidan behroq, behida gard (48-b), behi rang (48-b), sarig'chehram, chehra sarg'organ (33-b), sarig' ruxsora (43-b), sariq yuzimiz (72-bet), yuzum oltundek (132-b), ozori sarg'irdi (215-b), oltundek yuzum (218-b), rangin oroz (215-b), yuzimdin qahrobo rangi (202-b) kahi yuzum (291-b) kohvash yuzum (271-b), sarig' lolalar ruxsori (287-b) dadayi xunbori sarig' (328-b) va boshqalar, asosan o'zbekcha yuz, sarg'aygan yuzning sinonim ma'nosida ishlatilgan.

Xulosa shuki Alisher Navoiy o'sha davrda yashagan kishilarni aholi bu darajada yaxshi bo'lmaganini, yoki muhetlat yoshidagi yigitlarning ham o'zi maqsadiga yetmagani otin, zar qanchalik qimmatbaho buyum bo'lmasun ularning mehnatkash xalqda bo'lmagani uchun ko'p misralarda olin yuzli bolsa, zar yuzli kishilarning ahvoli og'irligini ko'rsata olgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. E.Begmatov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, T.Mirzayev, H.Faziyev, E.Umarov, D.Xudayberganova, A.Hojiyev “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 1-2-jild.
2. M.Sh. Shukurov, B.A.Kamronov, R.Xoshim, A.N.Ma’sumiy “Farhengi zabarni tojiki Maskva 1969 1-2-tom.
3. F.A.Abdurahmonov, Sh.Sh.Shoabdurahmonov, A.P.Hojiyev “O‘zbek tili grammatikasi”, “O‘zbekiston” “Fan” nashriyoti Toshkent 1975-yil.
4. M.Abdusamatov “Fors tili”, “sharq” nashriyoti Toshkent 2007-yil.
5. Aziz Qayumov, Abdulla Oripov neton Mallayev, Odil Yoqubov, Jamol Kamol, Alisher Navoiy “Qora ko‘zim” G‘ofur G‘ulom nashriyoti 1988-yil.